



**YO'L HARAKATI QOIDALARINI BUZISH BILAN BOG'LIQ MA'MURIY
HUQUQBUZARLIKLAR TO'G'RISIDAGI ISH YUZASIDAN
CHIQRILGAN QAROR USTIDAN SHIKOYAT BERISH VA PROTEST
BILDIRISH TARTIBI**

A.K. Yangibayev

**Ichki ishlar organlarining ma'muriy faoliyati kafedrası boshlig'i,
podpolkovnik, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20532349>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar yuzasidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish va protest bildirishning protsessual tartiblari tahlil qilingan. Shikoyat berish muddatlari, subyektlari, shikoyat va protestning qaror ijrosiga ta'siri, shuningdek, jarima ballari hisoblanishi bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish bosqichlari amaldagi qonunchilik asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'muriy huquqbuzarlik, yo'l harakati qoidalari, shikoyat, protest, ma'muriy jazo, jarima ballari, sud, prokuror, qonuniylik.

Kirish. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir shaxs Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq buzilgan huquqlarini, erkinliklarini tiklash va qonuniy manfaatlarni himoya qilish maqsadida yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Bu kafolat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunda hamda boshqa qonunchilik hujjatlarida qat'iy belgilab qo'yilgan. Shu jumladan, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida qo'llanilgan ma'muriy jazo choralarining qonuniyligi va asoslilikini ta'minlashda shikoyat va protest keltirish instituti muhim o'rin tutadi.

1. Shikoyat va protest keltirish huquqiga ega subyektlar





Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda huquqbuzar o'ziga nisbatan chiqarilgan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarordan norozi bo'lgan taqdirda, ushbu ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki sudga belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin. Qonunchilikka asosan shikoyat hamda protest keltirish huquqi muayyan subyektlarga berilgan:

Shikoyat qilish huquqiga ma'muriy ish yuzasidan jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili hamda advokatlar ham belgilangan tartibda ega hisoblanadilar.

Shikoyat ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga berilishi mumkin.

Prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati (DYHXX) mansabdor shaxsi qarori ustidan qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

2. Shikoyat berish muddatlari va uni ko'rib chiqishga yo'naltirish

Shikoyatni taqdim etish qat'iy protsessual muddatlar bilan chegaralangan bo'lib, unga rioya etilishi huquqiy oqibatlarni belgilab beradi:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat shu qarorning nusxasi olingan kundan boshlab o'n kun ichida berilishi mumkin.

Mazkur muddat uzrli sabablar bilan (kasallik, ta'til, xizmat safari va h.k.) o'tkazib yuborilgan taqdirda, tegishli tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgach, ustidan qaror chiqarilgan shaxsning arizasiga muvofiq shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan qayta tiklanishi mumkin.

Huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror chiqargan mansabdor shaxs shikoyatni olgach, uni uch kun ichida ish bilan birga shikoyatni ko'rib chiqish





huquqiga ega bo'lgan organ (mansabdor shaxs)ga yuborishi shart.

3. Shikoyat yoki protestning qaror ijrosiga ta'siri

Shikoyat yoki protest berilishi ma'muriy jazoni ijro etish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

Belgilangan muddatda shikoyat berish ma'muriy jazo qo'llanishi to'g'risidagi qarorning ijrosini shikoyat ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turadi.

Biroq, ma'muriy qamoq jazosi qo'llanish to'g'risidagi qaror va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda undirib olinadigan jarima solish hollari ijroni to'xtatib turish qoidasidan mustasnodir.

Transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish tarzida jazo berish haqidagi qarorning ijrosi to'xtatib turilgan hollarda, haydovchilik guvohnomasi o'rniga berilgan talonning amal qilish muddati shikoyatni ko'rib chiqish tugagunga qadar uzaytiriladi.

Shuningdek, prokurorning protest bildirishi ham ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosini protest ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turadi.

4. Shikoyat va protestni ko'rib chiqish natijalari

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyatni yoki protestni ko'rib chiqib, vakolatli organ (mansabdor shaxs) quyidagi hal qiluv qarorlardan birini qabul qiladi:

Chiqarilgan qarorni o'zgarishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirishsiz qoldiradi.

Chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni qayta ko'rib chiqish uchun yuboradi.

Chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni yuritishni tugatadi.

Jazo chorasini kuchaytirmagan holda uni ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilgan doirada o'zgartiradi.





Maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar yuzasidan shikoyatlarni ko'rishda o'ziga xosliklar mavjud. Agar qaror ustidan berilgan shikoyatni ko'rib chiqish jarayonida transport vositasiga huquqbuzarlik qayd etilgan paytda egalik qilgan shaxs aniqlansa yoxud transport vositasi mulkdorning egaligidan boshqa shaxslarning g'ayrihuquqiy xatti-harakatlari natijasida chiqib ketganligi aniqlansa, transport vositasining mulkdori ma'muriy javobgarlikdan ozod etiladi. Agar ushbu ish yangidan ko'rib chiqish uchun yuborilib qaror bekor qilingan taqdirda, mazkur ish haqiqiy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxsga nisbatan uning ilgari sodir etgan huquqbuzarliklarining takroriyligini inobatga olgan holda umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Qarorning bekor qilinishi oqibatlari:

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorning bekor qilinishi olib qo'yilgan haydovchilik guvohnomasini qaytarib berishga asos bo'ladi.

Jarima solish to'g'risidagi qaror bekor qilingan taqdirda undirilgan pul miqdori qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarib beriladi.

Agar qaror qonunchilikka xilof ravishda chiqarilganligi sababli bekor qilinsa, ushbu holat yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkaziladi. Aybdor mansabdor shaxsga nisbatan tegishli intizomiy chora ko'rilib, u haqidagi ma'lumot ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish hujjatlariga qo'shib qo'yiladi.

5. Jarima ballari bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi

Haydovchilar o'zlariga nisbatan hisoblangan jarima ballari bo'yicha DYHXXning tegishli bo'linmalariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda murojaat qilishlari mumkin. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra bo'linmalar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qarorni bekor qilish, ishni tugatish yoki murojaatni qanoatlantirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.





Quyidagi hollarda qarorni bekor qilish yoki tugatish haqida qaror qabul qilinadi:

Jarima ballarini hisoblashda texnik xatolik yuz berganligi aniqlanganda.

Jarima ballari "Yo'l harakati qoidabuzarliklarini jarima ballari asosida baholash tartibi to'g'risida"gi nizom talablarini buzgan holda hisoblanganda.

Haydovchilarning ma'muriy qoidabuzarligi oxirgi zarurat holatida sodir etilgan deb topilganda.

Ma'muriy ish Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 271-moddasi (ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlar) yoki 329-moddalariga (qaror ijrosini tugatish) muvofiq tugatilganda.

Agar murojaatlarda ko'rsatilgan sabablar o'z tasdig'ini topmasa, bo'linmalar tomonidan murojaatni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Haydovchilar DYHXX bo'linmalari qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda, ushbu qaror yuzasidan yuqori turuvchi organlarga yoki sudga shikoyat qilishlari mumkin. Mazkur yuqori turuvchi organlar tomonidan chiqarilgan qarorlar jarima ballarini o'zgartirishga asos hisoblanadi.

Xulosa

Yo'l harakati qoidalarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik ishlari yuzasidan qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyat qilish va protest bildirish instituti fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi asosiy huquqiy vosita hisoblanadi. Mazkur jarayon mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshirishga, noqonuniy yoki asossiz qarorlarni bekor qilish orqali huquqni qo'llash amaliyotida qonuniylik va adolat tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi. Murojaatlarni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi davlat boshqaruvining xalqparvarligini va demokratik tamoyillarga sodiqligini namoyon etadi.

6. Sud instansiyalarida qarorlarni qayta ko'rib chiqish bosqichlari

Contact: 99 826 99 56





Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan jinoyat ishlari bo'yicha sudning qarori ustidan shikoyat berish tartibi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning XXIV¹ bobida belgilangan qoidalar doirasida amalga oshiriladi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan sud qarori (ajrimi) apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida yoxud qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Apellyatsiya tartibida ish yuritish: Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan o'ziga nisbatan sudning qarori chiqarilgan shaxs, jabrlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, advokat, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzgan organ birinchi instansiya sudining qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berishga, prokuror esa protest keltirishga haqlidir. Sudning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qarori ustidan shikoyat (protest) ish bilan birga uch sutka ichida apellyatsiya instansiyasi sudiga yuborilishi lozim. Sudning ma'muriy qamoqqa olish yoki ma'muriy tartibda chiqarib yuborish to'g'risidagi qarori ustidan shikoyat (protest) apellyatsiya instansiyasi sudiga shikoyat olingan kuni yuborilishi shart.

Kassatsiya tartibida ish yuritish: Kassatsiya tartibida birinchi instansiya sudining ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha apellyatsiya tartibida ko'rilgan qarorlari va apellyatsiya instansiyasi sudining qarorlari qayta ko'rilishi mumkin. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar kassatsiya tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan ko'riladi. Kassatsiya shikoyati yoki protesti apellyatsiya instansiyasi sudining qarori chiqarilgan kundan e'tiboran olti oy ichida berilishi mumkin.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish: Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish asoslari qatoriga sud hujjati qabul qilingan paytda mavjud bo'lgan, lekin arizachiga ma'lum bo'lmagan ish uchun muhim holatlar kiradi. Shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi





bilan aniqlangan ekspertning bila turib yolg'on xulosa berganligi, guvohning yolg'on ko'rsatuvlari yoki mazkur ish bo'yicha sud hujjatini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilgan boshqa organning qarori bekor qilinganligi kabi holatlar ham ijro etilgan qarorlarni yangidan qayta ko'rib chiqishga bevosita asos bo'ladi.

REFERENCES

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining "Yo'l harakati to'g'risida"gi 2024-yil 19-yanvar O'RQ-900-son qonuni.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'RQ-445-son qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar haqida"gi 2021-yil 8-iyul 431-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rishni tartibga soluvchi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 2018-yil 30-noyabr 35-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Yo'l harakati qoidalarining buzilishiga doir ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 2011-yil 31-may buyrug'i.

Yangibayev A.K. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023.

Yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy





SCIENTIFIC CONFERENCE OPEN PROCEEDINGS

Global Academic Knowledge Repository



javobgarlikni ta'minlash: O'quv qo'llanma / Dj.X.Yuldashev, A.K.Yangibayev,
X.B.Jamoldinov, A.A. Xudayberdiyev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi, 2023.

Contact: 99 826 99 56

